O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

9. Hakimova, Z. T. Q. (2022). Kognitiv tilshunoslikda metafora termini va unga turlicha yondashuvlar. Science and Education, 3(5), 1976-1981.
10. Hakimova, Z. T. (2021). The analysis of metaphors and metonymies in political speeches. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 721-726.
11. Hakimova, Z. (2021). THE INFLUENCE OF FRENCH BORROWINGS ON THE ENGLISH LANGUAGE. Студенческий вестник, (10-4), 13-15.

INGLIZ VA O‘ZBEK TOPISHMOQLARINING LEKSIK (SHAKL VA MA’NO MUNOSABATI) XUSUSIYATLARIGA KO‘RA TURLARI

Abdujabborova Shohista Adiljonovna
Andijon Davlat Chet tillar Instituti stajyor-tadqiqotchisi
abdujabborovashohista645@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek topishmoqlarining leksik xususiyatlari, shakl va ma’no munosabatlari asosida turlari tahlil qilinadi. Xususan, ingliz va o‘zbek tillaridagi topishmoqlar orasidagi umumiy va xususiy leksik xususiyatlar misollar yordamida yoritib beriladi. Har bir tilning o‘ziga xos leksik belgilari va shakl-ma’no birikmalarining qanday qilib topishmoq yaratishda qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, bu leksik xususiyatlar asosida turli topishmoqlar turlari ajratib ko‘rsatiladi.
Kalit so‘zlar: topishmoq, leksik xususiyatlar, omonim, sinonim, antonim va emotsional-ekpressiv, konstruksiya.

Ingliz va o’zbek xalq topishmoqlarining struktural-semantik hamda sintaktik xususiyatlarini tadqiq qilish adabiy til va xalq tilining ayrim hodisalaridagi izomorfik va allomorfik jihatlari haqida to‘liq tasavvurni yuzaga kelishida tirgak vazifasini o’taydi. Topishmoqlar chuqur tahlil va cheksizlik makromaydonni qamrab olishini inobatga olgan holda izlanuvchilar ko‘p hollarda uning bir tomonlama yo‘nalishi va klassifikatsiyasi asosida tadqiq olib boradilar. J.Abdullayev topishmoqlarning leksik xususiyatlarini besh turga ajratadi: xalq topishmoqlari leksikasining iste’mol doirasiga ko‘ra tavsifi, leksik qatlamlar bo‘yicha tavsifi, xalq topishmoqlari leksikasi va jonli xalq tili leksikasining o‘zaro munosabati, topishmoqlarning shakl va ma’no miqdoriga ko‘ra tavsifi, topishmoqlarning semantik-tematik tavsifi [1, 116]. S.Kondrasheva topishmoqlarning tematik guruhini oydinlashtiradi hamda to‘rtta asosiy mavzuni aniqlaydi: 1) Tabiat 2) Kundalik hayot 3) Harbiy ishlar 4) Ma’naviy hayot [3,7]. N.Fayzulinna rus, tatar va ingliz topishmoqlarining sintaktik xususiyatlarini uch xil (sodda, qo‘shma va murakkab komponent) ko‘rinishda

izohlaydi va ingliz xalq topishmoqlari korpusida eng unumli model bu - bog‘langan va bog‘lovchisiz qo‘shma gap bo‘lib, ingliz tilidagi yordamchi so‘zlar (yet, still) konstruksiyasining muvofiqligi bilan bog‘liq ekanligini e’tirof etadi [6, 38]. I.E.Olaosun va J.O.Faleye [4, 66] ingliz topishmoqlarining kognitiv-semantik mohiyati to‘g‘risida fikr yuritadilar hamda topishmoqning to‘rt yetakchi maydonlari - Mantiqiy semantik maydon (Logical Semantic Space), Metaforik maydon (Metaphorical Space), Shaxsiy tajriba maydoni (Personal Experiential Space), Lingvistik makon (Linguistic Space) bilan uzviy aloqadorlikni tekshiradilar [4, 66].

J.Abdullayev qayd etishicha o‘zbek xalq topishmoqlarida omonimlar kam kuzatiladi [1, 37]: Yer tagida kumush kunda, sho‘rva qilsang kelar kunda. (Piyoz). Biroq ingliz tilida ushbu shaklni samarali ekanligini anglashimiz mumkin. Sababi, tadqiqotchi A. Rijenkova shunday ta’kidlaydi: omonimiya asosida qurilgan ingliz topishmoqlar - shakliy o‘xshashlikka ega bo‘lgan, lekin umumiy kategorik tuzilishga ega bo‘lmagan so‘zlar asosida tuzilgan topishmoqlarning maxsus sinfidir. Bunday topishmoqlar savolni ifodalaydi, uning javobi murakkab kognitiv harakat bo‘lgan omonimning turli ma’nolarini tahlil qilish orqali taxmin qilinadi. Omonim til o‘yini vazifasini bajaradi va topishmoqda yechimning kalitidir [5, 92]. Bunda tilshunos asosan topishmoqning javobida kuzatilayotgan omonimlarni nazarda tutadi. Darhaqiqat, ingliz tilida hazil-yumor tariqasida omonim topishmoqlar bir talay bo‘lib, bunda topishmoqning yechimida shaklan o‘xshash bo‘lgan omonimlar orqali kulgu ifoda etiladi. Bunday topishmoqlarning qurilish mexanizmi shunday: What kind of tree can you carry in your hand? (A palm). Ushbu topishmoq ingliz tilidagi palm leksemasi asosida qurilgan bo‘lib, ma’no ko‘lami ikki xil: 1. The inside surface of your hand, ya’ni qo‘limizning ichki yuzasi, kafti ma’nosi. 2. The palm tree, ya’ni palma daraxti. Bu turdagi topishmoqlar ingliz tilida boy bo‘lib uning yaralish konstruksiyalari xilma-xil.

Sinonimlar o‘zbek topishmoqlarida asosan ot va sifat turkumida foydalanilganligi aniqlanadi. Masalan: Og‘a-ini ming botir, ko‘m-ko‘k gilamda yotir (Osmon, yulduzlar). Zil gilam, zil-zil gilam, ko‘taray desam og‘ir gilam (Yer). Ingliz tilida esa sinonimiya holatlari nihoyatda kam spektrda qo‘llaniladi, qadimiy topishmoqlarning ayrimlari bunga misol bo‘la oladi:

The songs she sings beneath bright moons,
Disturb my night’s repose
But, oh, whispery, rumbly tunes!
She charms us all with those.
You must come near and listen well
To hear her rumble song.
I’ve told enough so you should tell
To whom these songs belong. (A cat)

Bu yerda, songs so‘zi tunes semasi, listen esa hear sinonimiyasi bilan keng ma’no spektrlari ko‘lamini namoyish etmoqda.

Antonimlar topishmoqlarda ma’no munosabatiga ko‘ra juda qiziqarli hamda keng ifodasini topgan qiyofadir. Zero, zid ma’no orqali topishmoqda yashirilgan predmetning barcha xususiyatlari ochib beriladi, yashirin ifodaga qarama-qarshi ma’lumot yoki belgi-xususiyat haqida axborot beradi. J.Abdullayev topishmoqlarda

antonimlarning qo‘llanish xususiyatlarini yonma-yon (kontakt) va alohida-alohida (distant) ko‘rinishda beradi [1, 45]. Darhaqiqat, kuzatishlarimiz natijasi o‘laroq, ingliz tilida ham shu ko‘rinishdagi topishmoqlarni uchratamiz:

Yonma-yon (kontakt) qo‘llanilgan antonimlar: O‘zbek tilida: Katta-kichik besh o‘rtoq, uyushsa bo‘lar to‘qmoq. (Barmoqlar). Ingliz tilida: What’s black and white and red (read) all over? (A newspaper), Nothing inside, nothing outside, at least as you can see. I’m as light as a feather, yet ten men can’t lift me! What am I? (The letter “E”)

Alohida-alohida (distant) qo‘llanilgan antonimlar: O‘zbek tilida: Yarmi oq, yarmi qora. (Tun-kun), O‘zi katta, dumi kalta. (Tuya). Asaldan shirin, zahardan achchiq. (So‘z, gap) [7]. Ingliz tilida: What is the beginning of eternity,

The end of time and space

The beginning of every end

And the end of every place? (A bubble) [8]

My life can be measured in hours,

I serve by being devoured.

Thin, I am quick

Fat, I am slow

Wind is my foe. (A candle) [2,78]

Ko‘rib turganimizdek, antonimlar topishmoqlarga kolorit tus beradi, emotsional-ekpressivlikni kuchaytirib, topishmoqni qiziqarli, lo‘nda, tushunish uchun oson, hotirada tez saqlanib qolishiga ko‘mak beradi, ohangdor bo‘lishini ta’minlaydi, leksikani bir-biriga zidlash asosida badiiy san’at hosil qiladi, umuman olganda, tilning boy ekanligini ko‘rsatib beruvchi zid semali til birliklari sifatida topishmoqlarning asosiy leksik-semantik xusuyitlaridan biridir. Ingliz va o‘zbek topishmoqlarining leksik (shakl va ma’no munosabati) xususiyatlariga ko‘ra omonim, sinonim va antonimlar shakllarni ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek xalq topishmoqlarida omonimlar kam kuzatilsa, ingliz tilida hazil-yumor tariqasida omonim topishmoqlar bir talay, bunda topishmoqning yechimida shaklan o‘xshash bo‘lgan omonimlar orqali kulgu ifoda etiladi. Sinonimlar o‘zbek topishmoqlarida asosan ot va sifat turkumida foydalanilganligi aniqlanadi. Antonimlarda zid ma’no orqali topishmoqda yashirilgan predmetning barcha xususiyatlari ochib beriladi, yashirin ifodaga qarama-qarshi ma’lumot yoki belgi-xususiyat haqida axborot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев Ж.Х. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик–семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз...дис. – Т., 1994. – 114 б.

2. Измайлов В.А. Сборник Английских загадок, пословиц и поговорок. (Учение с увлечением) – Ростов н/Д: Феникс, 2007. – с. 96.

3. Кондрашева С.С. Языковая картина мира в английской загадке: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2017. – 20 с.

4. Olaosun I.E., Faleye J.O. A Cognitive Semantic Study of Some English Riddles and Their Answers in Amidst a Tangled Web // Asian Journal of Social Sciences & Humanities. – Leena and Luna International, Oyama, Japan. Vol. 4 (2) May 2015. – P. 65-68.

5. Рыженкова А.А. Английские загадки, построенные на омонимии // Филологический аспект: международный научно–практический журнал, 2020. № 07 (63). – С. 91–96.
6. Файзулинна Н.И. Лингвокогнитивная модель народной загадки: образно–структурный аспект (на материале русского, татарского и английского языков). автореф. дис…док. филол. н. – Казань, 2019. – 42 с.
7. Ўзбек халқ топишмоқлари. https://ziyouz.uz/ozbek-xalq-ogzaki-ijodi/ozbek-xalq-topishmoqlari/
8. https://kids.niehs.nih.gov/games/brainteasers/tuff-stuff-riddles

7-SINFDA “RAVSHAN” DOSTONINI O‘RGANISH USULLARI

Nurboev Shirinbek
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ,,Ravshan” dostonining yangi avlod darsliklaridan o‘rin olishining ahamiyati, uni o‘rgatish jarayonidagi nazariy ahamiyat kasb etuvchi didaktik omillar, o‘quvchilarga uyga vazifa sifatida beriladigan savol-topshiriqlarning o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishdagi o‘rni haqida qisqacha so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: darslik, o‘quv dasturi, doston, omil, Ergash shoir, baxshi, savol-topshiriq, tahlil, qadriyat, syujet.

7-sinf ўkuvchilariga mўljallangan “Adabiët” darsligida “O‘tmishdan sadolar” rukni ostida Ergash Jumanbulbul ўg‘lining “Ravshan” dostonidan matn parcha berilgan bўlib, unga 3 soat, A2+: 5 soat miqdordagi vakt birligi ajratilgan. Ta’kidlash joizki, 7-sinf “Adabiët” darsligida mazkur dostonning dasturiy talqinida belgilab berilgan qarashlar va ўrganilishi zarur bўlgan didaktik jihatlar tўlaligicha ўz ifodasini topgan. Nazariy ma’lumotlar ham “Ravshan” dostoni xaqidagi maqolada berilgan, (162-165-betlar). Bulardan tashqari, doston matni bilan bog‘liq 28 ta savol va topshiriqlar (160-162-betlar) ham berilganki, hech shubhasizki, ular orqali doston matnining tўliq tahlilini amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Mustaqillikka erishganimizdan keyingi yaratilgan yangi avlod darsliklaridan “Ravshan” dostoni ўrin olib kelaëtgan bўlsa-da, u ikki jihatdan ahamiyatlidir. *Birinchidan*, ya’ni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan maqtab ўquvchilarining dўstlik syujetiga daxldor bўlgan mardlik, vafo, sadoqat va ўz ye’tiqodiga sodiqlik, ona-vatanga mehr-muhabbat ruhiga xos insoniy fazilatlar bilan tarbiyalaydi; *ikkinchidan*, ya’ni badiiy-yestetik jihatdan, balog‘at ostonasida turgan ўspirin ёshlarni yaqin yillarda ularni kutaëtgan kўngil-sevgi voqeliklari va ular orqali sodir bўladigan ichki his-tuyg‘ular, botiniy kechinmalar mazmuni bilan tanishtiriladi. Ayni nuqtai nazarni pedagog olimlar ham qўllab-quvvatlaydi: “ўsmir ёshda ўquvchilar insonning umri